



## DONGA GIDROTERMİK ISHLOV BERISHNING SAMARASI

**Abdashimova Xumora**

*Guliston davlat Universiteti O.O.Tyo'nalishi 3- bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: t.f.d.dots. Sattarov Karim Karshievich*

**Annotatsiya:** Donga suvni singish kinetikasi, don bilan suvning o'zaro ta'siri, gidrotermik ishlov berishning donning xossalariiga ta'siri, donning fizik-kimyoviy xossalaringin o'zgarishi

**Kalit so'zlar:** Diffuziya koeffisinti, endosperm, mikroyoriqlar,sov uq kondinsiyalash, tezlashtirilgan kondisiyalash, issiq kondisiyalash

### Kirish

Donni suvda bo'ktirishni alohida holati mavjuddir. Don suvda bo'ktirilganda bir necha sekund davomida 3-5% namlikni o'ziga oladi, keying bir necha vaqt davomida donning namligi o'zgarmaydi. Bu dastlabki namlikni donning meva qobig'i o'ziga oladi. Meva qobig'idagi kapilyalar, g'ovaklar va bo'liqlar birinchi namlikni saqlovchi sig'im vazifasini o'taydi. Meva qobig'I olgan namlik mustahkam bog'lanmagan bo'lib, tez atmosferada bug'lanib ketishi mumkin. Suvni mustahkam saqlash va uni yo'qolishini oldini olish donning keyingi urug' qobig'i, aleyron qatlami va qatlamlarda tez ko'chadi va oqsil, kraxmal bilan qattiq bog'lanadi. Donga suv bilan ishlov berganda donni o'ziga olgan namlik miqdori suv va donning temperaturasidan, donga suvni ta'sir etishni davomiyligidan bog'liq bo'ladi. Yuqori shishasimon bug'doy donini temperaturasi 15°C bo'lgan suvga botirilganda donga namlikni 10% ga oshishi 80 minutda sodir bo'ladi, suvning temperaturasi 30°C bo'lganda donda namlikni 10% ga oshishi 45 minutda sodir bo'ladi. Temperaturani oshishi natijasida suv molekulalarining kinetik energiyasi ko'payadi va donda ichki namlikni ko'chishi jadallahashi. Suvning temperaturasini oshishi bilan donning suvni yutish tezligi ko'payadi. Donni namlashda suvning temperaturasi 45°C gacha bo'lganda donning nonboplrik xossalari yaxshilanadi. Shuning uchun sovuq vaqtarda tegirmonlarda donning temperaturasini 15°C gacha oshirish va issiq suv bilan namlash maqsadga muvofiqdir. Suvning keying harakati endospermning ichiga yo'naltirilgan bo'ladi. Suvning keyingi siljishi sekin boradi, chunki suvning diffuziya koeffisienti donda kichkina bo'ladi. Natijada nam bilan to'yingan urug' qobig'i va aleyron qatlam yonida namligi past bo'lgan subaleyron qatlam va endospermning hujayralari bo'ladi. Donning ichki qismida namlikni endospermida ko'ndalang va uzunasiga mikroyoriqlar hosil bo'ladi. Mikroyoriqlarni hosil bo'lish jadalligi jarayonning sharoitlari va donni xossalari bilan aniqlanadi. Namlikni don ichkarisiga ko'chishi bilan bir vaqtning o'zida biopolimerlarning gidrotasiyasi har xil jarayonlarni rivojlantirishi natijasida donning strukturasi va xossalari to'liq yoki qisman orqaga qaytmaydigan darajada o'zgaradi. Bu jarayonlarning rivojlanishi, jadalligi va o'ynalishi gidrotermik ishlov berishning



rejimlariga va paramertlari miqdoriga bog'liq bo'ladi. Donni namlashda namlikni ko'rish jarayoni va bunda fizik, kolloid va biyoximyoviy jarayonlarni borishi shunday rivojlanadiki, ularning uchta davrini belgilash mumkin.

**Bug'doy doni bilan suvning o'zaro ta'sir qilishini umumiylashtirish sxemasi (1-jadval).**

Davri	Davom etish vaqt, soat	Donda namlikni ko'chish jarayoni
Boshlang'ich (tayyorlanish davri)	0,25...1	Meva qobig'i namlikni o'ziga oladi. Urug' qobig'i, aleyron qatlamlari va murak qismlarining suvlanishi bo'ladi.
Asosiy (endospermda yoriqlarni faol xosil bo'lish davri)	5...16	Namlikni yuqori qatlamlardan endosperm ichiga o'tishi
Oxirgi (sustlanish)	48...72	Donning hamma qismlarida namlikni muvozanatli nisbatda taqsimlanishi.

Boshlang'ich davri qabul qilingan namlikni donning yuqori qatlamlarida (meva va burug' qobig'ida, aleyron qatlamlari va murtakda) to'planishi bilan tavsiflanadi. Bu qatlamlarning bo'kishi natijasida donning solishtirma hajmi tez oshadi. Donning texnologik xossalari o'zgarishi kamroq, chunki donni yuqori qatlamlarida strukturali o'zgarish bo'ladi. Bu davr donni ichki qismiga namlikni jadal ko'chishiga tayyorlanish bilan tugaydi. Ikkinchi asosiy davrda donda hosil bo'lgan kuchlanish kritik miqdordan ham o'tib ketadi, natijada endospermda mikroyoriqlar paydo bo'ladi va u darz ketadi. Bu mikroyoriqlardan namlik endospermning ichiga ko'chadi. Endospermda ko'p miqdorda suvni bo'lishi fizik-kimyoviy jarayonlarni jadal rivojlanishiga olib keladi. Donning hamma xossalari sezilarli darajada o'zgaradi, ikkinchi davrdan keyin yakunlanadi. Uchinchi oxirgi davrda donning anatomic qismlarida namlik muvozanatli nisbatda tarqalishi bilan tavsiflanadi. Oqsil va uglevodlarning makromolekulalari astasekin muvozanatli shakilga ega bo'ladi, shu bilan don mag'izida kuchlanish sustlanadi. Bu davrni sustlanish davri deb nomlash mumkin. Donga suv va issiqlik bilan ishlov berilganidan keyin tindirish jarayonida 8 soatdan so'ng endospermda eng ko'p yoriqlar paydo bo'ladi. 12-16 soat davomida ko'ndalang va uzunasiga yoriqlar hosil bo'ladi. 16 soatdan keyin qisman mayda yoriqlar yo'qoladi, 48 soatdan keyin faqat tindirish jarayoni boshlanishida hosil bo'lgan katta yoriqlar qoladi. Endospermda mayda yoriqlarni bunday ko'rinxay qolishi namlangan oqsil matrisiyalari hajmining kengayishi, yana kraxmal hujayralarining hajmini ham qisman kengayishi bilan bog'liq. Tegirmon va yorma zavodlariga qayta ishlashga kelayotgan don partiyalarining xossalari har xil bo'ladi. Bu donlarga gidrotermik ishlov berganda ularning xossalari ham har xil o'zgaradi. Har bir don partiyasiga gidrotermik ishlov berishni kerakli variantini tanlash uchun ishlov berishning rejimlaridan bog'liq holda don bo'lagidan o'zgarishlar haqida ma'lumotlarni bilish kerak. Bu har bir donpartiyasi uchun gidrotermik ishlov berishni optimal variantini qo'llash imkonini beradi. Natijada



donning texnologik xossalari yaxshilanadi va barqaror bo'ladi. Gidrotermik ishlov berish natijasida donni fizik-kimyoviy xossalari ham o'zgaradi. Bu donni namlashda donni bo'kishi, strukturasining o'zgarishi va endospermni mo'rt bo'lishi bilan bog'liqdir. Bug'doy doniga sovuq usulda gidrotermik ishlov berilganda don shunday bo'ladiki, bunda mayda donning hajmi yirik donning hajmiga nisbatan ko'proq oshadi. Natijada don partiyasining tekslanganligi ko'payadi va bu keyingi texnologik jarayonlarning natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tindirishda donning naturasi boshlanishida tez kamayadi, keyin bir qancha oshadi. Bu donni bo'kishi va qobiqlarining namligini oshishi bilan bog'liqdir. Un ishlab chiqarishda shishasimonlik ko'rsatkichi namlik, gidrotermik ishlov berish jarayoning temperaturasi va davom etish vaqtiga bog'liq holda kamayadi.

Tegirmonlarda donga gidrotermik ishlov berish avtomatik ravishda nazorat qilish va sozlash sistemalariga ega bo'lgan murakkab mashina va tindirish bunkerlarida olib boriladi. Bularning hammasi texnologik sxema orqali bog'langan bo'lib, donning xossalariiga ta'sir qilishni ketma-ketligini belgilaydi. Gidrotermik ishlov berish jarayonida donga suv va issiqlik bilan ta'sir qilinadi. Bu jarayonning rejimlarini aniqlovchi parametrlariga quydagilar kiradi: namlik, temperatura, bosim va jarayonni davom etish vaqtini. Tegirmonlarda donga gidrotermik ishlov berishning quydagi usullari qo'llaniladi:

1. Sovuq kondisiyalash usuli;
2. Tezlashtirilgan kondisiyalash usuli;
3. Issiq kondisiyalash usuli.

Sovuq kondisiyalash usulida don temperaturasi 14-20°C bo'lgan suv bilan namlanadi va bunkerlarda tindiriladi. Bu usulda don qizdirilmaydi.

Tezlashtirilgan kondisiyalash usulida don to'yintirilgan bug' bilan bug'lantiriladi va keyin sovuq suvda yuviladi.

Issiq kondisiyalash usulida don sovuq suv bilan namlanadi va har xil isitgichlarda (ultriratovush, yuqori chostatali toklar, infraqizil nurlar va boshqalar) qizdiriladi.

O'zbekiston Respublikasidagi tegirmonlarda donga gidrotermik ishlov berishning sovuq kondisiyalash usuli qo'llaniladi. Bu usulni tashkil qilinishi va boshqarilishi oddiy, lekin namlangan donni tindirish uchun ko'proq bunkerlar hajmi talab qilinadi.

Sovuq kondisiyalash usulida donga gidrotermik ishlov berish quydagi usulda bajariladi: tozalangan donga ho'llab silliqlovchi mashinasida ishlov beriladi, qo'shimcha namlanadi va tindiriladi. Yuqori shishasimonli donlar ikki martta namlanadi va ikki martta tindiriladi. Navli un tortishda bug'doy doniga sovuq kondisiyalash usulida gidrotermik ishlov berish rejimlarining 2-jadvalda keltirilgan.

Navli un tortishda bug'doy doniga sovuq kondisiyalash usulida gidrotermik ishlov berish rejimlarining ko'rsatkichlari taxminiydir, chunki har bir don partiyasi o'zining boshlang'ich xossalaring har xilligi bilan va namlikni o'zgarishiga individual reaksiyalari bilan tavsiflanadi.



**Navli un tortish bug'doy doniga sovuq usulda gidrotermik ishlov berish  
rejimlarining taxminiy ko'rsatkichlari  
(2-jadval).**

Bug'doy tipi	Donning umumiy shishsasim onligi, %	Tegirmonga tushayotgan donning namligi, %	Namlikni oshishi	Tindirish soati	Namlikni oshshi, %	Tindirish	I yormalash sistemasidagi bug'doy namligi, %
I va II	60 dan yuqori	11,0dan kam	2,5...3,0	12...16	1,5...2,0	3...6	16,0...16,5
		11dan	2,0...2,5	10...12	1,0...1,5	3...5	16,0...16,5
		12,5gacha	2,0...2,5	4...8	-	-	16,0...16,5
		13,5gacha					
	40...60	11,0dan kam	2,5...3,0	9...12	1,5...2,0	2...4	15,5...16,0
		11dan	2,0...2,5	8...10	1,0...1,5	2...4	15,5...16,0
		12,5gacha	1,5...2,0	4...6	-	-	15,5...16,0
		13,5gacha					
	40 dan past	11,0dan kam	2,0...2,5	6...8	1,5...2,0	2...3	14,5...15,0
		11dan	2,0...2,5	4...6	1,0...1,5	1,5...2	14,5...15,0
		12,5gacha	1,0...1,5	2...4	-	-	14,5...15,0
		13,5gacha					
IY	60 dan yuqori	11,0dan kam	3,0...3,5	14...24	1,5...2,0	4...6	16,5...17,0
		11dan 13,5 gacha	2,5...3,0	12...14	1,0...1,5	4...6	16,5...17,0
		14,5gacha	2,0...2,5	4...10	-	-	16,5...17,0
		11,0dan kam	3,0...3,5	12...16	1,5...2,0	3...4	16,0...16,5
	40...60	11dan	2,5...3,0	10...12	1,0...1,5	3...4	16,0...16,5
		13,5gacha	1,5...2,0	4...8	-	-	16,0...16,5
		14,5gacha					
		11,0dan kam					
	40 dan past	11dan 13,5 gacha	2,5...3,0	10...12	1,5...2,0	2...3	15,5...16,0
		14,5gacha	1,5...2,5	8...10	1,0...1,5	2...3	15,5...16,0
		11,0dan kam	1,0...1,5	4...6	-	-	15,5...16,0
		11dan 13,5 gacha					

Donga tezlashtirilgan kondisiyalash uslida ishlov berish quydagi tartibda bajariladi: don ACK markali bug'lovchi apparatda qisqa vaqt (20-40 sekund) bug'langandan so'ng bir necha minut issiqlik bunkerida saqlanadi. Keyin issiq don yuvish mashinasida sovuq suvda yuviladi va namlikni oluvchi mashinaga yuboriladi. Don qo'shimcha namlanadi va tindirish uchun bunkerlarga yuboriladi. Agar donni boshlang'ich namligi past bo'lsa, donni namlikni oluvchi mashinaga yuborish shart emas. Don bunda to'g'ridan to'g'ri namlagich apparatiga yuboriladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Равшанов С., Исматов Н. А., Юлдашева Ш. Ж. Ун ва ёрма ишлаб чиқаришнинг замонавий техналогиялари .Тошкент, 2018й.
2. Бутковский В. А., Мельников Е. М. Технология мукомольного крупяного и комбикормового производства. М .Агропромиздат. 1989 г.
3. Егоров Г .Ф ., Мельников Е. М., Максимчук Б. М . Технология муки, крупы комбикормов. М. Колос, 1984 г.
4. Мерко И. Т .Технология ъукомольного и крупяного производства. М. Агропромиздат .1985 г.
5. Тегирмонларда технологик жараёнларни ташкил этиш ва юритиш қоидалари .Тошкент , 2009 й.